MEHROB VA MASXARA YOXUD ERKIN NORSAFAR HIKOYALARIDA HAYOT AKSI

Nasiba Xo'janova

Termiz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Do'smatova Sabrina Baxrom qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Kalit so'zlar: mehrob, hikoya, bekatdagi malak, surxon, kolarit

Ключевые слова:: Kalit so'zlar: михроб, рассказ, ангел на остановке, Сурхон, колорит

Keywords: mihrab, story, angel at the station, Surkhan, colorite

Annotatsiya:

Ushbu maqolada yozuvchi Erkin Norsafarning hikoyalari tahlil qilingan, Tahlil jarayonida yozuvchi uslubi, hikoya qahramonlarining prototiplari haqida so'z borgan.

Аннотация:

В данной статье проанализированы рассказы Erkin Norsafar, в процессе анализа речь шла о стиле писателя и прототипах героев рассказов.

Abstract:

This article analyzes the stories of Erkin Norsafar. During the analysis, the writer's style and the prototypes of the story characters were discussed.

Surxon hikoyachilik maktabida Shukur Xolmirzayevdan keyin Erkin A'zam, Nodir Normatov, Qo'chqor Norqobil kabi yetuk hikoyanavislar yetishib chiqdi. Bu

silsilaning navbatdagi halqasini yozuvchi, dramaturg Erkin Norsafar ijodida ko'rishimiz mumkin.

Erkin Norsafar. Bu ism bugungi kitobxonu-tomoshabinga tanish. Garchi yozuvchining ilk kitobi "Mehrob va masxara" yaqinda nashr etilgan bo'lsa ham, ijodkorning "Tashna qalb", "Vaqt dasturi", "Ko'hna o'rmon g'aroyibotlari", "Koinot xaloskorlari", "Jannatga biz bilan kir", "Endi kech…" kabi komediya va dramalari allaqachon sahna yuzini ko'rdi va o'z tomoshabiniga ega.

"Mehrob va masxara" – bu kitobni qo'lga olgan kitobxon birinchi navbatda kitobning nomiga e'tibor qaratadi. Kitobni o'qiy turib, yozuvchining so'z qo'llash mahoratini hikoyalari sarlavhasidan ham payqaydi: "Qorachiqqa ko'chgan og'riqlar", "Bekatdagi malak", "Oy adashgan kecha", "Yovuq eshik ortidagi haqiqat", "Meni kutgan haqiqat", "Qirg'oq izlagan odam" kabi. Yozuvchi hikoyalarini bir o'qishda tushunmaysiz. Kitobdagi ba'zi hikoyalarning mohiyatini anglash uchun, qaysidir ma'noda kitobxonga tayyorgarlik kerak. Masalan, "Yovuq eshik ortidagi haqiqat" hikoyasi. Hikoyada go'yo katta yo'l bo'yidagi ko'p qavatli ko'hna imorat xonadonlaridan birining eshigi taqillaydi. Yo'qlovchi ham qaysi eshikni taqillatishni biladi, dabdabali, zamonaviy uylar qolib, bo'yog`ining tusi qochgan, zulfi qayta-qayta almashtirilaverganidan deyarli hammayog'iga yamoq tushgan eshikni taqillatadi. Tinchi buzilgan qo'shnilar g'avg'o ko'taradi. Ammo u esa… eshikni ochmoqchi emas, chunki ilgari ham eshik taqillaganda ochmagan, ammo ko'pning ko'ngliga qarab eshikning ilk bora ochilishi ortidan xotirjamligini yo'qotgan edi. Kitobxon o'yga toladi:eshik taqillatuvchi kim yoki nima, nega eshik ochilmaydi? Yozuvchi yozadi: "Dunyo aslida uning mulki edi. Boshqa taqillatuvchilar yopiq eshik atrofida kuymalanishib, vahima ko'tarishayotganda uzoq-uzoqlardan savlat bilan ko'rinish berib qo'yishi uncha-munchaga yopiq eshik

sohiblarini ham tahlikaga solib qo'yardi. Chunki, zamon va hatto makon ham uning izmida. Aksariyat yopiq eshiklar ilk taqillatishdayoq ochiladi. Tag'in talayi har qanday taqillatuvchi kelishidan oldin ochib qo'yiladi…". Bu sirli hikoyadagi "savdosi qattiq ushbu yo'qlovchi" eshikni taqillatmay ham kirib bora olardi. Xohlasa bas, hech bir mashaqqatsiz istagiga erishadi. Dunyo yaralibdiki shunday bo'lib kelgan! Hikoyada ichkarida nima borligi, eshik sohibi-yu, matonatining sababi, so'nggi yo'qlovchining kimligi ham mavhumligicha qolaveradi. Aslida, "bu yo'qlovchi" har kuni, har soniya har birimizning eshigimizni taqillatadi. Unga Yaratgandan boshqa hammamizning ehtiyojimiz bor! To'g`ri, eshik ochilsa, hamma-hammasi o'zgaradi: barcha noxushliklar tugaydi,ammo shunisi aniqki, agar bu eshik ochilsa ichkaridagini sharmanda qiladi,ochilmasa masxara. Bu – muhtojlik edi**.** Yozuvchi biror o'rinda bu so'zni tilga olmaydi, faqat ishora qiladi, xolos.

Xalqimizda "Yaxshi niyat –yarim mol"–degan ibora bor. "Niyating-yo'ldoshing" ham deyishadi. Yozuvchining "Uchovlon va…to'rtinchi" hikoyasi ham huddi shu mazmunda. Hikoya qahramoni Ikromni qarzdorlik, qo'li kaltalik abgor qilgan. Tirikchiligi esa shu– mashina tuzatadigan ustaxonadan. Ishga noxush kayfiyatda avtobusda ketarkan, yonidagi o'rindiqda ikki nafar yosh militsiya xodimining suhbati qulog'iga chalinadi. "–… Shu kecha- kunduzda bitta kichkina ish bo`lsa ham mayli edi. Kattarog'i o'zlaridan ortmaydi. Men ham o'zimni ko'rsatishim kerakku, to'g'rimi? Durustroq ish berishsin, qilaman. Shu qilganiga , mana deb, hech bo'lmaganda birorta chigalroq ishkal bo'lsa edi…" Ikromda ularning suhbatini boshqa eshitishga xohish qolmadi, chunki o'zining tashvishlari yetarli edi. Tashqarida esa, huddi sevib qolgan qiz bolaning arazidek bo'lib kuzning ilk yomg'iri yog'ardi. Biroz o'tib, avtobus bekatdan navbatdagi

yo'lovchini oldi. "Qora plashdagi oliftanoma " kishi Ikromning yoniga kelib o'tiradi va telefonda kim bilandir shunday gaplashadi: "… Bizda hozir nechta o'rin bo'sh? Xudo deb o'tirmasdan bemorlarni ko'proq jalb qilish haqida o'ylash kerak. Kerak bo'lsa, boshqa shifoxonadan o'g'irlab kelinglar. Bilmayman, xodimlarga ayt, mukofot olishni xohlashsa, o'sha bo'sh o'rinlarga qarindoshlarini olib kelib yotqizishsin. Bu yer xususiy shifoxona… -Da…Mashinam buzildi. Ustaxonada qoldirib kelyapman… ". Shu tobda Ikrom "Qaysi ustaxonada qoldirdi ekan? Mabodo bizda emasmikin? Attang, ertaroq chiqsam bo'larkan, sheriklarimdan birortasi ilib ketgandir?"- deb o'ylaydi.

Yomg'ir esa hamon kuchayib yog'ardi. Yomg'irdan atrof horg'in va bu zerikarli holat odamlarning chehralarida ham aks etardi. "Birinchi yomg'ir xavfli bo'ladi, ehtiyot bo'lish kerak. Hatto, eng tajribali haydovchi ham bunday kezlarda hushyorroq bo'ladi" deb o'ylaydi asar qahramoni. Sal o'tmay, avtobus yo'nalishida katta tezlikda kelayotgan yengil mashinaning g'ildiraklaridan chiqqan qattiq chiyillagan ovoz hammani larzaga soldi. Avtohalokatdan qochish maqsadida rulni chetga olmoqchi bo'lgan mashinalar bir- biriga urildi… Ko'p o'tmay "ichki ishlar xodimlari", "tez yordam" va pachoqlangan mashinarni olib ketish uchun maxsus "xizmat mashinalari" yetib keladi. Qarangki, ertalab qilgan niyati uchun bu falokatda o'zini aybdor his etayotgan Ikromning xayolidan shu fikr o'tdi: "Xayriyat, oramizda to'rtinchimiz yo'q ekan…" .

Yozuvchining "Qorachiqqa ko'chgan og'riqlar" hikoyasi mashhur film rejissyorining yolg'izlikdagi hayoti va ayolning cheksiz muhabbati haqida hikoya qiladi. Hikoyani o'qib har bir kitobxonda nega bunday bo'ldi? Nega ular birga bo'lisha olmadi degan savol paydo bo'ladi. Vaqt o'tib, sochga oq oralaganda bu juftlik uchrashadi. "Nima uchun bunday yo'l tutganingni ayt" – deydi erkak, –

"Agar men bilan qolganingizda bu yutuqlarga erisha olmasdingiz…, Agar shunday qilmaganimda Sizdagi iste'dod mudroqligicha qolib ketaverardi. Mening gunohim, xudbinlik qila olmaganimda "– deydi ayol. Ayolning biz bu fidoyiligini anglashimiz qiyin. Sirasini aytganda, yon-atrofimizda bunday insonlar bor, ammo biz ularning qalb iztiroblarini anglay olishimiz qiyin, sababi bugun biz muhabbat arzon bo'lgan, muhabbat qadr topmagan jamiyatda yashayapmiz. Aslida, Sevish – o'z suyganing hayoti bilan yashash demakdir. Bobur hazratlari "Sevarlarning itini ham sevarlar…"– deb yozadi. Majnunga Laylining ko'chasidagi it ham qadrli bo'lgan Hikoya mana shunday mahzun kayfiyatda yakunlanadi. Yozuvchi esa xulosani kitobxonga qoldiradi.

Ushbu kitobga kirgan hikoyalarni o'qiy turib, ruhiy yolg'izlikning sokin dunyosida umrguzaronlik qilayotgan, o'tmishda qilgan gunohlari sabab vijdoni qiynalib "xiyobon" yo'lagida o'tirgan mo'ysafidni, aqli noqis bo'lsa ham, "aqlli" jamiyatdan butkul ajralib turadigan "tilla" yigitni, garchi sevgani bu foniy dunyoga qaytmasligini bilsa ham, yo'lga intiq tikilgan ma'sum nigohli "bekatdagi malak"ning dardini his qilasiz.

Xulosa qilib aytganda, adabiy taqdirini baxtli taqdir deb bilgan yozuvchi Erkin Norsafarning ushbu kitobi bizga hayotning zaliy bitigi –Haqiqat va Mohiyatni anglashga, yozuvchi aytmoqchi, hayotimizdagi "oq-qora kataklarning" qay biri obyekt, qay biri subyekt ekanligini anglatishga turtki beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 432 b.

2. Qo'shjonov M. Badiiy tafakkur va uslub. – Toshkent: Akademnashr, 2020. Erkin Norsafar. Hikoyalar to'plami. – Toshkent: Sharq, 2018. – 256 b.

3. Karim B. O'zbek hikoyachiligida poetik tafakkur. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2023. – 198 b.

4. Rasulov A. Badiiylik mezonlari va estetik tafakkur. – Toshkent: Fan, 2021. – 287 b.

5. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.

6. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.

7.Zafariddin Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.